

SOHALAR RIVOJIDA INGLIZ TILINI O'QITISHNING TUTGAN O'RNI

Qodirova Baxtigul

O'zDJTU talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola ingliz tilining rivojlanib borish tarixi, dunyo miqyosida yoyilishi va unga berilayotgan e'tibor, shart-sharoitlar haqida fikrlarni o'z ichiga olgan. Shu jumladan, bu borada ingliz tili darajasini oshirish va chet davlatlar bilan kommunikatsiyalarni kuchaytirishning foydalari haqida so'z boradi. Ingliz tilini jahon tili darajasiga olib chiqqan omillar va uning sabablari yuzasidan fikrlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *ingliz tili, kommunikatsiya, chet millatlar, ingliz tili darajasini oshirish, sertifikatlashtirish tizimi, IELTS*

Annotation: *This article includes the ideas about a history of the development of the English language over the world, including thoughts about the conditions and the attention paid to it. Among them, there is talk about the benefits of improving the level of English and strengthening communications with foreign countries. The factors that brought English to the level of a world language and its reasons are given briefly. Then, views on how the results of language level certification measures and opportunities to applicants are reflected.*

Key words: *the English language, communication, foreign nationalities, improving the level of English, certification system, IELTS*

Hozirda dunyo bo'yicha barcha davlatlarda qo'shimcha til sifatida ingliz tili o'qitilmoqda. Hatto bir qarashda chet tillariga aloqadorligi yo'qdek ko'rinadigan sohalarda ham ingliz tili talab etiladi. Ingliz tili birinchi til hisoblangan davlatlar zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalar yo'lida shu darajada jadal rivojlandiki, bugunga kelib dunyo bo'yicha o'z tilini keng targ'ib qilishga muvaffaq bo'lishdi. Albatta, bunday yutuqqa erishish uchun ular ancha yillar oldin harakatni boshlashgan. Demak, biror tilni jahon miqyosida taraqqiylashtirish uchun, avvalambor, innovatsion g'oyalar bilan keng tanilish kerak. Vaholanki, bunga ta'lim tizimining sifati ham ulkan hissa qo'shadi. Ayni paytda dunyo bo'ylab 400 milliondan ortiq kishi ingliz tilida gaplashadi. Aslida ingliz tilining boshlanish tarixi Angliyaning Anglo-Sakson qirolliklari hamda hozirgi Shotlandiyaning janubi-sharqiga to'g'ri keladi. XVIII asrdan Buyuk Britaniyaning, so'ng Britaniya imperiyasi va XX asrning o'rtalaridan boshlab Qo'shma Shtatlarning ulkan ta'siri sababli bu til dunyo bo'yicha keng tarqaldi, shuningdek, turli xil millatlarning aloqaviy tiliga aylandi. Texnologiyalar rivojlangan olamimizda esa har bir mahsulot, uskuna, kommunikatsiya vositalari-yu barcha kichkina detallarning

yo'riqnomasida ingliz tilida ko'rsatma berilgan. Shu boisdan ham millatlar orasidagi yaqinlikni kuchaytirish hamda tillarni e'zozlash maqsadida chet tillarini o'rganishga bo'lgan talab sezilarli darajada ortib ketdi va ingliz tilini chuqur o'rganishning samarasini yaqqol ko'rgan o'rganuvchilar qolganlarni ham bunga jalb qilishmoqda. Natijada o'zbekistonlik chet davlatlarda tahsil olayotgan talabalar ham mamalakatimiz rivojiga, ham shaxsiy o'sishiga katta hissa qo'shmoqdalar hamda o'z saflarini kengaytirishmoqda. Bu esa dunyo bo'ylab O'zbekiston atalmish davlat haqida eshitmagan odam qolmasligi uchun ham katta qadamdir. Qo'shimcha qiladigan bo'lsak, aynan yuqorida keltirilgan sabablar va vatanimizning boy tarixi tufayli yurtimizga turistlarning tashrifi yildan yilga ortib bormoqda.

Ingliz tiliga talablarni oshirish va yoshlarni jalb qilish maqsadida turli xil o'quv kurslari va sertifikat olish tizimlari tashkil qilingan. 1980-yil Buyuk Britaniyaning Cambridge English Language Assessment va British Council qo'shma korxonasi hamkorligida IELTS (International English Language Testing System) test tizimi tashkil qilindi. Bu xalqaro darajadagi sertifikat bo'lib, talabgorlarga o'z darajalarini (level) aniqlash, chet davlatlarda o'qish, kommunikatsiya va yana ko'plab imkoniyatlarni taqdim qiladi. Shu jumladan, bizning yurtimizda ham ingliz tili darajasini oshirish va bu tilni o'z ona tiliday o'rganishni oldiga maqsad qilib qo'yganlar uchun respublikamiz bo'ylab minglab ta'lim markazlari tashkil etilgan. Har bir talabgor o'zi xohlagan markazga borib tahsil olish imkoniyatiga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Qo'ldoshev, S.Xamzayev. Ingliz tili tarixi. Toshkent-2015.1b.
2. Gaziyeva M. O'quvchilarga ingliz tilini o'qitishda o'yin metodining ahamiyati. Toshkent-2023.740 b. www.openscience.uz
3. Ergashova, S., Yadgarova, L., Ziyodulloeva, M., Norova, F., & Yuldashova, N. (2022). The principles of using computer technologies in the formation and development of students' language skills. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 13(Special Issue 6). <https://www.pnrjournal.com/index.php/home/article/view/2116>
4. Isakulova, B. K. (2024). Role of leadership style in teaching process. GOLDEN BRAIN, 2(1), 615–619. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/6060>
5. Isakulova, B. K. (2023). Teaching a foreign language through didactic games to preschoolers. GOLDEN BRAIN, 1(11), 234–239. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/3161>
6. Isakulova, B. K. (2023). The importance of teaching children English with early childhood with the help of game learning methods. International Journal of Advanced

Research in Education, Technology and Management, 2(4), 352–360.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7813228>,

<https://ijaretm.com/index.php/ij/article/view/339>

7. Isakulova, B. K. (2024). Didactic games as a means of learning preschool children learn English. Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10518781>
<http://multidiciplinaryjournal.com/index.php/mm/article/view/104>

8. Tuxtayevich, K. I. ., Ahmatovna, P. S. ., Turgunbayevna, M. N., Rasulovna, R. M. ., Qizi, T. F. R. ., & Qizi, Y. N. A. . (2024). Different Approaches to Enhance Critical Thinking in Digital Education. SPAST Reports, 1(7).
<https://spast.org/ojspath/article/view/5086>

9. Yuldashova , N. A. qizi, & Ziyadulloyeva , M. S. qizi. (2024). Essence of developing learners' communicative competence. Golden Brain, 2(1), 572–575. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/6050>

10. Toshboyeva Z. Ingliz tili taraqqiyoti. Toshkent-2024. 572 b. “Modern Science and Research”